



THE PROCEDURAL INTERRELATIONSHIP BETWEEN ARBITRATION TRIBUNALS AND COMPETENT COURTS AND ITS LEGAL NATURE

Farangiz F. Najmiddinova

Master's Student in Mediation and Alternative Dispute Resolution

Tashkent State University of Law

E-mail: farangiznajmiddinova57@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: arbitration tribunal, competent court, procedural interrelationship, arbitration proceedings, judicial assistance, judicial supervision, interim measures, securing of evidence, arbitral award, enforcement, alternative dispute resolution.

Received: 15.09.26

Accepted: 16.09.26

Published: 17.09.26

Abstract: This article examines the procedural interrelationship between arbitration tribunals and competent courts and explores its legal nature within the framework of alternative dispute resolution. Particular attention is given to the procedural mechanisms through which competent courts provide assistance to arbitration tribunals, including the granting of interim measures and the securing of evidence. The study further analyzes the interaction between international legal instruments and national legislation governing arbitration proceedings. It identifies key procedural and legal challenges arising from the exercise of judicial assistance and control in arbitration. The article also examines the balance between the autonomy of arbitration tribunals and the supervisory and supportive functions of competent courts. Based on the findings, proposals are developed to improve the legal framework governing the procedural interrelationship between arbitration tribunals and competent courts and to enhance the effectiveness of arbitration proceedings.

HAKAMLIK SUDI VA VAKOLATLI SUDLAR O'RTASIDAGI PROTSESSUAL ALOQADORLIK VA UNING HUQUQIY TABIATI

Farangiz F. Najmiddinova

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish usullari” yo‘nalishi magistranti

E-mail: farangiznajmiddinova57@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: hakamlik sudi, vakolatli sud, protsessual aloqadorlik, hakamlik muhokamasi, dalillarni ta‘minlash, da‘voni ta‘minlash choralari, sud jarimasi, hal qiluv qarori, ijro, nizolarni muqobil hal etish.

Annotatsiya: Mazkur maqola hakamlik sudi va vakolatli sudlar o‘rtasidagi protsessual aloqadorlik va uning huquqiy tabiatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda hakamlik sudi muhokamasi jarayonida da‘voni ta‘minlash choralarini qo‘llash, dalillarni ta‘minlash kabi masalalar tahlil etilgan. Shuningdek, ushbu maqolada xalqaro huquqiy hujjatlar va milliy qonunchilik normalari qiyoslanib, bugungi kunda hakamlik muhokamasida uchraydigan muammolar ochib berilgan. Tadqiqot natijasida hakamlik sudi va vakolatli sudlar o‘rtasidagi aloqadorlikni samarali amalga oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Hakamlik sudi va vakolatli sudlar o‘rtasidagi oqilona protsessual hamkorlik hakamlik muhokamasining samaradorligi va qonuniyligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРЕТЕЙСКОГО СУДА И КОМПЕТЕНТНЫХ СУДОВ И ЕГО ПРАВОВАЯ ПРИРОДА

Фарангиз Ф. Наджмиддинова

Магистрант направления «Медиация и альтернативные способы разрешения споров»

Ташкентский государственный юридический университет

Республика Узбекистан

E-mail: farangiznajmiddinova57@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: третейский суд, компетентный суд, процессуальное взаимодействие, третейское разбирательство, судебное содействие, судебный контроль, обеспечительные меры, обеспечение доказательств, решение третейского суда, исполнение, альтернативное разрешение споров.

Аннотация: В статье исследуется процессуальное взаимодействие третейского суда и компетентных судов, а также раскрывается его правовая природа в рамках альтернативного разрешения споров. Особое внимание уделяется процессуальным механизмам оказания компетентными судами содействия третейскому разбирательству, включая принятие обеспечительных мер и обеспечение доказательств. Проводится анализ соотношения международно-правовых актов и национального

законодательства, регулирующих третейское разбирательство. Выявляются основные правовые и процессуальные проблемы, возникающие при осуществлении судебного содействия и контроля за деятельностью третейского суда. Кроме того, рассматривается вопрос обеспечения баланса между автономией третейского разбирательства и контрольными и обеспечительными функциями компетентных судов. По результатам исследования разработаны предложения по совершенствованию правового регулирования процессуального взаимодействия третейских судов и компетентных судов и повышению эффективности третейского разбирательства.

Kirish. Bugungi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning kengayishi, transmilliy savdo hajmining ortishi hamda investitsiyaviy hamkorlikning rivojlanishi natijasida nizolarni muqobil hal etish usullariga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, hakamlik muhokamasi fuqarolik va iqtisodiy nizolarini tezkor, maxfiy hal etish imkonini beruvchi samarali mexanizm sifatida keng qo'llanilmoqda. Natijada, hakamlik sudlari va vakolatli davlat sudlari o'rtasidagi protsessual aloqadorlik masalasi nizolarni muqobil hal etish usullarining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Hakamlik sudlari mustaqil nizolarni hal etish instituti hisoblanishiga qaramasdan, ularning samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan vakolatli davlat sudlari bilan protsessual hamkorlik masalasiga bog'liqdir. Xususan, da'voni ta'minlash choralari qo'llash, dalillarni taqdim etishda ko'maklashish, hakamlik qarorlarini bekor qilish, hamda majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish kabi masalalarda davlat sudlarining ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda hakamlik sudlari faoliyatini takomillashtirish, investorlar huquqlarini samarali himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" Prezidentning 60-son Farmonining 15-maqsadi doirasida, nizolarni hal etishning muqobil usullaridan keng foydalanish uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish maqsadi ustuvor vazifa etib belgilandi.

Shuningdek, 2026-yil 21-apreldagi "Hakamlik sudlari faoliyati yanada takomillashtirilishi hamda budjet intizomi kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi

qonuniga asosan, hakamlik sudlari faoliyatini tashkil qilishning qonuniy asoslarini va ular tomonidan qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, hakamlik sudlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashtirish, hakamlik sudlari faoliyatini hamda hakamlik muhokamasini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Hakamlik sudlari faoliyatining huquqiy asoslari takomillashib borayotganiga qaramay, hakamlik sudi va vakolatli davlat sudlari o'rtasidagi protsessual aloqadorlik masalalari o'zining dolzarbligini saqlab qolmoqda. Xususan, hakamlik muhokamasini amalga oshirish jarayonida vakolatli sudlarning ishtirokini aniq belgilash, hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini nizolashish va ijroga qaratish bilan bog'liq protsessual masalalarni samarali tartibga solish zarurati mavjud. Mazkur holatlar hakamlik sudi va vakolatli sudlar o'rtasidagi protsessual aloqadorlikning huquqiy tabiatini chuqur ilmiy tadqiq etish hamda amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Asosiy qism. Dunyo miqyosida hakamlik jarayoniga nisbatan ikki xil munosabat shakllangan bo'lib, bir tomondan, hakamlik sudlarining mustaqilligi va sudlarning aralashmaslik tamoyili, ikkinchi tomondan esa davlat sudlarining hakamlikka ko'maklashuvchi funksiyasi hisoblanadi. Ushbu ikki tamoyil o'rtasidagi muvozanat mamlakat qonunchiligining rivojlanganlik darajasi va xalqaro majburiyatlarga sodiqligiga qarab farq qiladi. Bu tamoyillarning asosiy vazifasi hakamlik sudlari faoliyatiga asossiz aralashish emas, balki taraflarning protsessual huquqlarini ta'minlash, hakamlik muhokamasining samaradorligini oshirish hamda kelgusidagi hakamlik qarorining ijro etilishiga ko'maklashishdan iboratdir.

Huquqshunos olim A.Xakberdiyev o'zining dissertatsiyasida hakamlik sudlari va vakolatli sudlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning quyidagi asosiy yo'nalishlari ajratib ko'rsatadi:

- vakolatli yoki hakamlik sudlarida ishlarni ko'rib chiqishda yurisdiksiyadagi o'zgarishlar;
- da'voni ta'minlash yuzasidan choralar ko'rish to'g'ridagi arizalarni ko'rish;
- hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish haqidagi arizalarni ko'rib chiqish;
- hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqalari berish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish. Bu yo'nalishlar hakamlik sudlari va vakolatli sudlar o'rtasidagi protsessual aloqadorlikning asosiy ko'rinishlarini ifodalaydi.

Hakamlik muhokamasi jarayonida vakolatli sudlarning ishtiroki turli protsessual shakllarda namoyon bo'lsada, ularning eng muhim yo'nalishlaridan biri da'voni ta'minlash choralari qo'llash bilan bog'liq masalalarda ko'zga tashlanadi. Chunki hakamlik sudlari mustaqil ravishda majburiy ijro mexanizmiga ega emas. Da'voni ta'minlash choralari samarali qo'llanilishi bevosita davlat sudlari faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Xalqaro arbitraj sohasida yetakchi mutaxassislardan biri Nigel Blackabyning fikriga ko'ra, da'voni ta'minlash choralarining asosiy vazifasi taraflar o'rtasidagi mavjud holatni vaqtincha saqlab turish hamda hakamlik muhokamasi yakuniga qadar nizoning predmetini himoya qilishdan iboratdir. Ushbu choralar hakamlik muhokamasi yakunlangunga qadar taraflarning huquq va manfaatlariga zarar yetishining oldini olishga xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlar ichida hakamlik sudlari va vakolatli sudlar o'rtasidagi protsessual aloqadorlikning eng muvaffaqiyatli modellardan biri sifatida Singapur tajribasini keltirish mumkin. Singapur huquq tizimida mahalliy hakamlik sudlari (arbitraj) faoliyati 2001-yilgi "Arbitraj to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu qonun hakamlik sudining mustaqilligini ta'minlash bilan birga, vakolatli sudlarning vazifalarini ham aniq chegaralab beradi. Singapur tajribasining o'ziga xos jihati shundan iboratki, vakolatli sud va hakamlik sudi ham da'voni ta'minlash choralarini qo'llay oladi. "Arbitraj to'g'risidagi qonun" ning 28-moddasiga ko'ra, hakamlik sudi tomonlari boshqacha kelishmagan bo'lsa, hakamlik sudi mustaqil ravishda da'voni ta'minlash choralarini qo'llaydi.

O'zbekiston qonunchiligida da'voni ta'minlash choralarini qo'llash tartibi o'ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi. Da'voni ta'minlash choralari hakamlik muhokamasi davomida nizoning kelgusida samarali hal etilishi hamda chiqariladigan hakamlik qarorining ijrosini ta'minlashga qaratilgan vaqtinchalik protsessual choralar hisoblanadi.

Da'voni ta'minlash choralarini qo'llash bo'yicha faqatgina hakamlik muhokamasining taraflari murojaat qilish huquqiga ega hisoblanadi. 2014-yilda "Hakamlik sudlari to'g'risida" gi qonunga o'zgartirishlar kiritilib, 32-modda 2-qismi olib tashlandi. Ushbu moddada agar hakamlik muhokamasi taraflari boshqacha shartlashmagan bo'lsalar, hakamlik sudi hakamlik muhokamasi taraflaridan birining iltimosiga ko'ra da'voni ta'minlash choralarini ko'rish to'g'risida ajrim chiqarish vakolati belgilangan edi. Hakamlik sudining mustaqil da'voni ta'minlash chorasini qo'llash vakolati amaliyotda to'g'ri shakllantirilmaganligi sababli qonunga o'zgartirish kiritildi.

Da'voni ta'minlash choralarining asosiy maqsadi nizoning predmetini saqlab qolish, taraflarning mol-mulkini himoya qilish hamda kelgusida chiqariladigan hakamlik qarorining samarali ijro etilishini ta'minlashdan iboratdir. Shu sababli, xalqaro amaliyotda ham, milliy qonunchiliklarda ham da'voni ta'minlash protsessual choralarni qo'llash instituti muhim protsessual kafolat sifatida e'tirof etiladi. Bunda ayrim xorijiy davlatlarda hakamlik sudlariga mustaqil ravishda da'voni ta'minlashchoralarni qo'llash vakolati berilgan bo'lsa, boshqa davlatlarda ushbu vakolat asosan davlat sudlari tomonidan amalga oshiriladi.

Milliy qonunchiligimizda esa da'voni ta'minlash bilan bog'liq masalalarda vakolatli sudlarning protsessual vakolatlari ustuvor ahamiyatga ega ekanligi kuzatiladi. Xususan, amaldagi

tartibga ko'ra, majburiy xarakterdagi da'voni ta'minlash choralari qo'llash asosan davlat sudlari vakolatiga kiradi. Mazkur yondashuv hakamlik qarorlarining kelgusidagi ijrosini kafolatlashga xizmat qiladi hamda davlat majburlov mexanizmlarining samarali qo'llanilishini ta'minlaydi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, hakamlik sudlari va davlat sudlari o'rtasidagi munosabatlar qarama-qarshilik asosida emas, balki o'zaro hamkorlik tamoyiliga asoslanadi. Xitoy davlatida 1994-yilda qabul qilingan "Arbitraj to'g'risida"gi qonunning 28, 46 va 68-moddalari bevosita da'voni ta'minlash masalalarini qamrab oladi. "Arbitraj to'g'risida"gi qonunning 28-moddasiga muvofiq, taraflar mulkni saqlash yoki dalillarni yo'qolib ketishining oldini olish maqsadida da'voni ta'minlash choralari so'rab murojaat qilish huquqiga ega. Biroq, taraflar to'g'ridan-to'g'ri vakolatli sudga emas, balki hakamlik sudga murojaat qilishi va hakamlik sudining o'zi arizani vakolatli sudga yuborishi belgilangan. Xitoy huquqiy tizimida da'voni ta'minlash mexanizmi markazlashgan xarakterga ega bo'lib, hakamlik sudi to'g'ridan-to'g'ri da'voni ta'minlash harakatini amalga oshira olmaydi. Da'voni ta'minlash choralari qo'llash bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish vakolati to'liq davlat sudlari zimmasiga berilgan. Xususan, tegishli qonunchilik normalariga muvofiq, mol-mulkni xatlash, dalillarni mustahkamlash yoki boshqa choralarni qo'llash faqat sud qarori asosida amalga oshiriladi. Shu sababli, da'voni ta'minlash choralari qo'llash uchun arizani da'vogar javobgarining mol-mulki joylashgan yoki uning yashash joyidagi vakolatli sudga murojaat qilishi lozim bo'ladi.

Bu tartibga nisbatan farqli yondashuv Angliya amaliyotida kuzatiladi. Angliyada hakamlik sudlarining (arbitraj) faoliyati 1996-yilda qabul qilingan Arbitration Act 1996 asosida tartibga solinadi. Ushbu qonunning 39-moddasiga muvofiq, hakamlik sudi vakolatli davlat sudidan mustaqil ravishda da'voni ta'minlash choralari qo'llash huquqiga ega hisoblanadi. Da'voni ta'minlash choralari qo'llashda hakamlik sudi ushbu nizoni o'z ish yurituviga qabul qilgan bo'lishi lozim. Shu bilan birga, hakamlik sudida (arbitraj) taraflarni oldindan ogohlantirmasdan ham da'voni ta'minlash choralari qo'llash vakolati ham mavjud.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, vakolatli sudlarning hakamlik muhokamasiga ortiqcha aralashuvi hakamlik sudlarining asosiy afzalliklari bo'lgan tezkorlik, moslashuvchanlik va taraflar erkinligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zamonaviy davlatlarda "minimal sud aralashuvi" prinsipi tobora keng qo'llanilmoqda. Mazkur yondashuv hakamlik sudining mustaqilligini ta'minlash bilan birga, taraflarning protsessual huquqlarini himoya qilishga ham xizmat qiladi.

Demak, hakamlik sudlari va vakolatli sudlar o'rtasidagi protsessual aloqadorlikni to'g'ri tashkil etish hakamlik tizimining samaradorligini oshirish, sud byurokratiyasini kamaytirish hamda iqtisodiy nizolarni tezkor hal etishda muhim omil hisoblanadi.

Shu o'rinda, 2025-21-avgustdagi PF-140-son "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni doirasida bir qator maqsadlar belgilandi. Jumladan, sud ishlarini yuritishda qog'oz shaklidan voz kechish maqsadida "Raqamli sud" konsepsiyasi asosida ishlarning yuritilishini bosqichma-bosqich to'liq elektron shaklga o'tkazish belgilandi.

Mazkur farmondan kelib chiqib, hakamlik sudlari va vakolatli davlat sudlari o'rtasidagi protsessual hamkorlik masalasini ham raqamlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ya'ni hakamlik sudiga da'voni ta'minlash choralari qo'llash zarur deb topilgan hollarda vakolatli davlat sudiga elektron shakldagi xat yuborish vakolatini berish hakamlik muhokamasi samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda hakamlik sudining da'voni ta'minlash zarurati haqidagi ajrimi, ish materiallari hamda da'voni ta'minlash choralari qo'llash asoslarini tasdiqlovchi hujjatlar bevosita elektron tizim orqali vakolatli sudga yuborilishi mumkin bo'ladi.

Bu mexanizm hakamlik sudlari va vakolatli davlat sudlari o'rtasida yagona elektron axborot almashinuvi tizimini joriy etish sud faoliyatini raqamlashtirishga oid davlat siyosatining mantiqiy davomi hisoblanadi. Avvalo, da'voni ta'minlash choralari qo'llash bilan bog'liq protsessual vaqtni qisqartirish imkonini beradi. Chunki amaldagi tartibda tarafning mustaqil ravishda sudga murojaat qilishi ma'lum vaqt talab etadi va ayrim hollarda javobgar tomonidan aktivlarni boshqa shaxslarga o'tkazish, mol-mulkni yashirish yoki nizoning predmetiga zarar yetkazish xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Hakamlik sudining elektron xat orqali bevosita vakolatli sudga murojaat qilishi esa bunday xavflarning oldini olishga xizmat qiladi.

Hakamlik muhokamasi jarayonida yana bir muhim jarayon bu nizoni hal qilish uchun dalillarni taqdim etish hisoblanadi. Dalillar ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan taqdim etiladi. Bugungi kunda hakamlik muhokamasi jarayonida taraflar tomonidan dalillarni o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki hakamlik sudining protsessual topshiriqlarini bajarmaslik holatlari hakamlik muhokamasining uzoq vaqt davom etishiga hamda nizoni samarali ko'rib chiqishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, ayrim hollarda taraflar tomonidan dalillarni qasddan yashirish yoki taqdim etishni sun'iy ravishda kechiktirish hakamlik jarayonidan suiiste'mol qilish holatini yuzaga keltiradi.

Shu sababli, hakamlik muhokamasi davomida taraflarning protsessual majburiyatlarini bajarishini ta'minlaydigan samarali huquqiy mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Hakamlik muhokamasida taraflarning tortishuvchanlik prinsipini to'liq ta'minlash

hamda ishdagi haqiqiy holatlarni aniqlash samaradorligini oshirish maqsadida, qonunchilikka davlat sudlarining hakamlik sudlariga dalillarni to'plashda ko'maklashishi hamda buning uchun protsessual javobgarlik tizimini joriy etishni taklif qilamiz.

Hakamlik sudlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida taraflar tomonidan hakamlik sudining qonuniy talablarini bajarmaslik, xususan, dalillarni asossiz ravishda taqdim etmaslik yoki hakamlik muhokamasiga to'sqinlik qiluvchi harakatlarni sodir etish holatlarida sud jarimasini qo'llash mexanizmini joriy etish lozim. Fuqarolik va iqtisodiy protsessual kodeksida, dalilni saqlayotgan shaxs talab qilinayotgan dalilni taqdim etish majburiyatini sud uzrsiz deb topgan sabablarga ko'ra bajarmagan taqdirda, uni saqlayotgan shaxsga belgilangan tartibda sud jarimasi solinishi belgilangan. Lekin hakamlik sudlarida jarimaga tortish mexanizmi mavjud emasligi tufayli, vakolatli sud orqali bu mexanizmni joriy etishimiz lozim.

Bunda hakamlik sudi dalillarni taqdim etmaslik kabi protsessual buzilish holatini aniqlagan taqdirda tegishli ajrim chiqarib, vakolatli davlat sudiga elektron shakldagi xat orqali murojaat qilishi mumkin bo'ladi. Vakolatli sud esa hakamlik sudining murojaatini ko'rib chiqib, taraf tomonidan protsessual majburiyatlarning bajarilmaganligi tasdiqlangan taqdirda, unga nisbatan sud jarimasini qo'llash masalasini hal qiladi.

Xorijiy tajribalarni ko'rib chiqsak, Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksining 1050-paragrafiga muvofiq, hakamlik sudi yoki uning roziligi bilan nizolashayotgan taraflardan biri davlat sudiga dalillarni to'plashda ko'maklashishni so'rab murojaat qilishga haqli. Mazkur normaning o'ziga xosligi shundaki, Germaniya hakamlik sudi yoki hakamlik sudining roziligi bilan taraflardan biri hakamlik sudi vakolatiga kirmaydigan dalillarni to'plash yoxud boshqa sud harakatlarini amalga oshirishda davlat sudidan ko'mak so'rab murojaat qilishi mumkin. Davlat sudi bunday murojaatni, agar u nomaqbul deb topilmasa, o'zining dalillarni to'plash yoki boshqa sud harakatlarini amalga oshirishga oid protsessual qoidalari asosida ko'rib chiqadi va bajaradi. Agar sud ajrimida ko'rsatilgan dalillar taraflar yoki uchinchi shaxslar tomonidan taqdim etilmasa, davlat sudi ularga nisbatan bevosita fuqarolik-protsessual jarimalarni qo'llaydi.

Shunday mexanizm Angliya Arbitraj to'g'risidagi Qonunining 44-moddasida ham o'z aksini topgan. Ushbu qonunga ko'ra, Angliya Oliy sudi (High Court) hakamlik (arbitraj) muhokamasini qo'llab-quvvatlash maqsadida guvohlarning ko'rsatmalari va dalillarni saqlash, tekshirish hamda talab qilib olish bo'yicha maxsus buyruqlar chiqarishi mumkin. Agarda sud buyrug'i bajarilmasa, bu holat sudga hurmatsizlik deb baholanadi va bajarmagan tomonga nisbatan nafaqat yirik miqdorda jarimalar qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

Mazkur mexanizm hakamlik sudining protsessual intizomni ta'minlash imkoniyatlarini kuchaytiradi va davlat ta'sir choralari qo'llash vakolatining davlat sudlarida saqlanib qolishini

ta'minlaydi. Shuningdek, mazkur tartib taraflarning hakamlik muhokamasiga vijdonan munosabatda bo'lishini rag'batlantiradi, dalillarni o'z vaqtida taqdim etish majburiyatini kuchaytiradi hamda hakamlik muhokamasini uzoq vaqt davom etish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hakamlik sudlari va vakolatli davlat sudlari o'rtasidagi protsessual hamkorlik yanada samarali va amaliy ahamiyatga ega mexanizm sifatida shakllanadi.

Xulosa. Hakamlik sudlari va vakolatli davlat sudlari o'rtasidagi protsessual aloqadorlikni xalqaro standartlar va milliy amaliyot ehtiyojlari asosida takomillashtirish hakamlik institutining rivojlanishi, investorlar huquqlarining ishonchli himoya qilinishi hamda nizolarni muqobil hal etish tizimining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot davomida milliy qonunchilik tizimimizda hakamlik sudlari va vakolatli sudlar o'rtasidagi protsessual aloqadorlik bilan bog'liq ayrim masalalarda huquqiy bo'shliqlar hamda amaliy muammolar mavjudligi asoslandi. Xususan, da'voni ta'minlash choralarini qo'llash tartibi, hakamlik sudining protsessual tashabbus imkoniyatlari, taraflarning dalillarni taqdim etish majburiyati bilan bog'liq mexanizmlar yanada takomillashtirilishi lozimligi qayd etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. "Hakamlik sudlari faoliyati yanada takomillashtirilishi hamda budget intizomi kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2026-y., 03/26/1141/0403-son <https://lex.uz/uz/docs/-8154966>
3. Xakberdiyev A.A. O'zbekistonda nizolarni hakamlik sudida hal etish jarayoni: nazariy va amaliy masalalar: yuridik fanlar bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023. – B. 173.
4. Nigel Blackaby, Redfern and Hunter on International Arbitration, Oxford University Press, 2009.
5. Arbitration Act 2001 (Singapore, 2020 Revised Edition). Singapore Statutes Online. <https://sso.agc.gov.sg/Act/AA2001>
6. Arbitration Law of the People's Republic of China (Adopted at the 9th Session of the Standing Committee of the 8th National People's Congress on August 31, 1994, amended in 2017). National People's Congress of China. [Online source]: <https://www.cictar.org>.

7. Zivilprozessordnung (ZPO), § 1050 (Gerichtliche Hilfe bei der Beweisaufnahme und sonstige richterliche Handlungen). Bundesministerium der Justiz. [Online source]: https://www.gesetze-im-internet.de/zpo/__1050.html